e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/t96n6997

DOSTOYEVSKIY IJODIDA G‘OYAVIY KONSEPSIYANING BARQARORLIGI

Xalilova Dilbar Jalilovna
Qarshi davlat universiteti, dotsent.
e-mail: dilbarxalilova71@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-3911-1867

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Dostoyevskiy psixologik tasvirda faqat yozuvchi emas, balki o‘ziga xos rus psixologik poeziya maktabini yaratgan olim ekanligi, psixologik tasvir Dostoyevskiy ijodida usul darajasidan uslub darajasigacha shakllanib, butun asarni yuzaga keltiruvchi, yozuvchi g‘oyalari va qarashlarini aks ettiruvchi tugallangan yaxlit uslubga aylanganligi xususida fikr bildiriladi. Bugun Fyodor Dostoyevskiyni butun dunyo o‘qiyapti, o‘rganayapti va uning asarlari ta’sirida san’atning yangi qirralarini ochmoqda. Garchi bugungi kunda Dostoyevskiyni har bir o‘qimishli kishi bilsa va sevsa ham, u haqida hamon shubha va xavotir bilan gapirishmoqda: uni qabul qilish kerakmi yoki yo‘qmi? Bu xil mulohazalarga yozuvchining murakkab ijodiy faoliyati, uning qarama-qarshiliklardan iborat adabiy dunyosi, ezilgan kishilarning ruhiy iztiroblarini behad bo‘rttirib (aslida, eng realistik tarzda) ko‘rsatgani, eng avvalo, yozuvchi ijodiy uslubining xilma-xilligi, dunyoqarashining bir shakl qobig‘ida emasligi sabab bo‘lmoqda.

Dostoyevskiygacha bo‘lgan rus adabiyotida hali bir xillik hamda G‘arb ta’siri kuchli edi. Tendensioz ta’sir esa adabiyotning ma’lum bir yo‘nalishda bo‘lishini talab etardi. To‘g‘ri, XIX asrning boshlaridayoq barcha rus ziyolilari jon-jahdlari bilan G‘arb adabiyotini, avvalo, fransuz va nemis adabiyotini tarjima qilishga, ularning yutuqlarini o‘zlashtirishga kirishdilar. Shu ma’noda rus adabiy dunyosi jonlandi.

Dostoyevskiy qahramonlarining dunyosi o‘zi yashagan davr insonlarining ma’naviy dunyosi, ma’naviy dramasi va ma’naviy ko‘zgusidir. Lekin qahramonlar shu kechinmalari, orzulari, armonlari, umidlari va fojialari bilan bizga yaqinlar. Dostoyevskiy qahramonlarining har biri bizning vujudimizda yashaydi. Fojia shundaki, o‘z vujudimizda shunday ayanchli, shunday mudhish hamda barcha yaramasliklari bilan birga go‘zal dunyo borligini Dostoyevskiy bizga ko‘rsatib berdi: biz o‘z tuyg‘ularimizni, o‘z og‘riqlarimizni kam tahlil qilamiz, bizning fojialarimiz shunda. Dostoyevskiy qahramonlari biz bilan birga nafas olib, bir vujudda yashayveradi. Ularni ko‘rish uchun esa bizga Dostoyevskiyning ko‘zi kerak.

Qanday va kim bo‘lishidan qat’i nazar, insonga achinish va uni sevish hissi yozuvchining barcha asarlaridan ufurib turadi. U quyi tabaqa vakillari, chetga surilgan kishilar taqdiridan o‘z asrining fojiasini topa oladi. Agar asarlarini sinchiklab o‘qisak, obrazlar, epizodlar, psixologik usullar, qahramonlarning ruhiyati, gaplari va og‘riqlari bir-birini takrorlagandek, bir-birini qaytargandek, sayqallangandek tuyuladi. Lekin e’tibor bilan o‘qisak, bu hech qachon takror emas, aksincha, bir-birining davomi ekanini his qilamiz.

Kalit so‘zlar: psixologik tasvir, inson logikasi, syujet, fabula, poetik manzara, polifonik roman, g‘oyaviy konsepsiya, badiiy tafakkur, qayg‘u va quvonch, shafqatsizlik va mehribonlik, g‘azab va donolik, xorlik va mag‘rurlik.

УСТОЙЧИВОСТЬ ИДЕЙНОЙ КОНЦЕПЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ДОСТОЕВСКОГО

Халилова Дилбар Жалиловна
Каршинский государственный университет, доцент.

Аннотация.

В данной статье рассматривается мысль о том, что Достоевский в области психологического изображения выступает не только как писатель, но и как исследователь, создавший своеобразную школу русской психологической поэзии. Отмечается, что психологическое изображение в творчестве Достоевского развилось от уровня художественного приёма до уровня целостного стиля, который определяет структуру всего произведения и отражает идеи и взгляды писателя. Сегодня произведения Фёдора Достоевского читают и изучают во всём мире, открывая под их влиянием новые грани искусства. Несмотря на то что в настоящее время практически каждый образованный человек знает и любит Достоевского, о нём по-прежнему говорят с сомнением и тревогой: следует ли принимать его творчество или нет? Причинами подобных размышлений становятся сложность творческой деятельности писателя, противоречивость его художественного мира, предельно обострённое (в действительности глубоко реалистическое)

изображение душевных страданий угнетённых людей и, прежде всего, многообразие его творческого метода и невозможность ограничить его мировоззрение рамками одной формы.

В русской литературе до Достоевского ещё сохранялись определённое единообразие и сильное влияние Запада. Тенденциозность требовала от литературы следования определённому направлению. Вместе с тем уже в начале XIX века русская интеллигенция активно приступила к переводу произведений западной литературы, прежде всего французской и немецкой, и освоению её достижений. В этом смысле русская литературная жизнь заметно оживилась.

Мир героев Достоевского представляет собой духовный мир, духовную драму и духовное зеркало людей эпохи, в которую жил писатель. Однако эти герои близки нам своими переживаниями, мечтами, несбывшимися надеждами, стремлениями и трагедиями. Каждый из героев Достоевского живёт внутри нас. Трагедия заключается в том, что Достоевский показал нам существование в нашей собственной душе мира одновременно мучительного, страшного, полного пороков и вместе с тем прекрасного. Мы слишком редко анализируем собственные чувства и душевную боль — в этом и заключается наша трагедия. Герои Достоевского продолжают дышать вместе с нами и жить внутри нас. Чтобы увидеть их, нам необходимо взглянуть на мир глазами Достоевского.

Чувство сострадания и любви к человеку, независимо от того, кем он является и какое положение занимает, пронизывает все произведения писателя. В судьбах представителей низших слоёв общества и отверженных людей он сумел увидеть трагедию своего века. При внимательном чтении его произведений может показаться, что образы, эпизоды, психологические приёмы, душевные состояния, высказывания и страдания героев повторяются, воспроизводятся и постепенно оттачиваются. Однако при более глубоком прочтении становится очевидно, что это не повторение, а органическое продолжение и развитие ранее представленных художественных элементов.

Ключевые слова: психологическое изображение, логика человека, сюжет, фабула, поэтическая картина, полифонический роман, идейная концепция, художественное мышление, печаль и радость, жестокость и доброта, гнев и мудрость, унижение и гордость.

THE STABILITY OF THE IDEOLOGICAL CONCEPT IN DOSTOEVSKY'S WORKS

Xalilova Dilbar Jalilovna

Karshi State University, Associate Professor.

Abstract.

This article examines the idea that Dostoevsky, in the field of psychological representation, was not merely a writer but also a scholar who established a distinctive school of Russian psychological poetry. It emphasizes that psychological representation in Dostoevsky's works evolved from an individual literary technique into a comprehensive artistic style that shapes the entire work and reflects the writer's ideas and perspectives. Today, Fyodor Dostoevsky is read and studied throughout the world, and his works continue to inspire the discovery of new dimensions of art. Although virtually every educated person today knows and appreciates Dostoevsky, discussions of his legacy are still accompanied by doubt and concern: should his work be accepted or rejected? Such questions arise from the complexity of his creative activity, the contradictions inherent in his literary world, his intensely heightened (yet fundamentally realistic) portrayal of the psychological suffering of oppressed individuals, and, above all, the diversity of his artistic methods and the impossibility of confining his worldview to a single framework.

Before Dostoevsky, Russian literature was still characterized by a certain uniformity and a strong influence of Western culture. Tendentious influences required literature to follow particular ideological and artistic directions. Nevertheless, as early as the beginning of the nineteenth century, Russian intellectuals actively engaged in translating Western literature, especially French and German works, and assimilating their achievements. In this respect, Russian literary life experienced a significant revival.

The world of Dostoevsky's characters represents the spiritual world, inner drama, and moral reflection of the people of his time. However, these characters remain close to us through their experiences, dreams, unfulfilled aspirations, hopes, and tragedies. Each of Dostoevsky's characters lives within us. The tragedy lies in the fact that Dostoevsky revealed the existence within our own souls of a world that is simultaneously painful, terrifying, full of human flaws, and yet beautiful. We rarely analyze our own feelings and

ISSN 3060-5059 (Online)

emotional suffering, and therein lies our tragedy. Dostoevsky's characters continue to breathe alongside us and exist within our inner world. To recognize them, we need to see through Dostoevsky's eyes.

A sense of compassion and love for human beings, regardless of who they are or what position they occupy, permeates all of the writer's works. Through the destinies of people from the lower social classes and those marginalized by society, he was able to reveal the tragedy of his century. A careful reading of his works may create the impression that the characters, episodes, psychological techniques, emotional states, statements, and suffering of his protagonists are repeated, reproduced, and gradually refined. However, closer examination reveals that these elements are not repetitions but rather organic continuations and developments of previously introduced artistic ideas.

Keywords: psychological representation, human logic, plot, fabula, poetic imagery, polyphonic novel, ideological concept, artistic thinking, sorrow and joy, cruelty and kindness, anger and wisdom, humiliation and pride.

Kirish. Dostoyevskiy dunyoga mashhur, asarlari jahonda eng ko‘p chop etiladigan, mutolaa qilinadigan nodir iste’dod egasi, rus adabiyotining darg‘a yozuvchisidir. F.M. Dostoyevskiy hayotlik davridayoq eng bezovta, o‘zgaruvchan va ehtiroslarga boy adib hisoblanganligi adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan. Uning asarlarida maishiy syujetlar kezib yursa ham, aslida u har bir asarida inson haqida bahs yuritdi. U insonni tabiatning eng go‘zal va ulug‘ mo‘jizasi, eng vahshiy qonunlar bilan qurshalgan aql bovar qilmas mavjudot deb tushundi. Inson haqidagi qarashlari bilan Sharqning eng yirik falsafiy-diniy oqimi – tasavvuf tariqatiga juda yaqin borib qoldi.

Qanday va kim bo‘lishidan qat’i nazar, insonga achinish va sevish hissi yozuvchining butun asarlarida ufurib turadi, u past tabaqa, chetga surilgan kishilar taqdiridan o‘z asrining fojiasini topa oladi. Agar asarlarini sinchiklab o‘qisak, obrazlar, epizodlar, psixologik priyomlar, qahramonlarning ruhiyati, gaplari, og‘rig‘i bir-birini takrorlagandek, bir-birini qaytargandek, sayqallangandek tuyuladi. Lekin e’tibor bilan o‘qisak, bu hech qachon qaytariq emas, aksincha, bir-birining davomchisi ekanini his qilamiz. Buni mana shunday formula bilan ko‘rsatish mumkin: Makar Devushkin – bu yozuvchining yaratgan birinchi obrazi edi, yozuvchi bu obrazning faqat bir tomonini ko‘rsatdi: qolgan asarlarida esa ana shu birinchi asarida ko‘zga tashlanmay qolgan qirralarni terib ola boshladi va yoritdi. Hech qachon Mishkin Raskolnikovning takrori emas, zotan, ikkalasining ham qalbida umumiy tomonlar ko‘p. Mishkin – Raskolnikovning jinoyati va vijdoniy jazosi natijasida ko‘zga ko‘rinmay qolgan tomoni. «O‘lik uydan maktublar»ning bosh qahramoni Aleksandr Petrovichning turmadagi hayoti «Jinoyat va jazo»dagi Raskolnikovning o‘zi emas, deb kim ayta oladi? Ma’lum fikrlardan tashqari, bu uchalasi ham asli bir inson. Umuman, Dostoyevskiyda bunday priyom ko‘p. «Oydin tunlar»dagi xayolparast obrazi «Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar»ning bosh qahramoni Ivan Petrovichga juda o‘xshaydi va hatto voqea ham. Biroq Ivan Petrovich «Oydin tunlar»dagi xayolparastga qaraganda bir oz ishlangan, yuksakroq maqsad uchun intiladi, eng asosiysi, kurashadi. Biroq fe’l-atvori xayolparastning o‘zi. Shu sababli Dostoyevskiy asarlarini yakka-yakka emas, yaxlit olib baholash zarur.

«Oydin tunlar» o‘z vaqtida yaxshi asar va katta eksperiment edi. Eski an’analardan asarda ataylab chetlab o‘tilgan, eskicha hikoya qilish ataylab singdirilgan edi. Asarda hech qanday hayajonli, tendensioz adabiyotning oshiq-ma’shuqlar qissasiga o‘xshash oldi-qochdilar sodir bo‘lmaydi. «Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar»da esa insonni sevish chuqurlashgan. Endi bu asarda ikkita taqdir emas, butun bir guruhning taqdiri yotadi. Insonni sevish xayolda emas, amalda isbot etiladi, eng muhimi, hali rus adabiyotida sinab ko‘rilmagan asar ketidan asar eksperimenti qo‘llab ko‘riladi, ya’ni asarlar zanjiri vujudga keladi.

Dostoyevskiy dunyoqarashini ma’lum bir qolipga solib bo‘lmaydi. Biroq uning bitta asosiy ijodiy konsepsiyasi borligi ko‘zga tashlanadi. Faqat shu konsepsiyagina uning butun ijodini bir chiziqqa chizib turadi. Uning ijodidagi murakkabliklarni ana shu konsepsiyadan izlash kerak, bizningcha. U o‘zida asarining juda ko‘p murakkabliklarini mujassamlashtirgan edi. Lekin ana shu murakkabliklarda, izlanishlarda, har xil falsafiy g‘oyalar kurashida inson dardini bo‘rttirib ko‘rsatishlarda bitta umumiy tomon bor. Bu ham bo‘lsa, insonni ardoqlash fazilatidir. Adib asarlariga o‘z davrida Dobrolyubov yuksak baho bergan va shunday ta’kidlagan edi: «Janob Dostoyevskiy asarlarida biz umumiy bir xususiyatni ko‘ramiz, u yozgan narsalarning hammasida bu xususiyat ozmi, ko‘pmi, sezilib turadi. U ham bo‘lsa, odam to‘g‘risida achinib qayg‘urishdirki, bu odam o‘zini ojiz deb biladi yoki nihoyat, hatto haqiqiy bus-butun, o‘ziga mustaqil odam bo‘lishiga o‘zini haqli emas deb biladi».[1]

Dostoyevskiy nazarida jamiki yaramas savollarga javob xuddi xazina yashiringan simday insonning o‘zida yashiringan edi. U o‘zini qiynagan savollarga javobni faqat insonning o‘zidan izladi va «Inson jumboq, yozuvchi ana shu jumboqni yechib berishi kerak», deb hisobladi. U ana shu og‘ir va mashaqqatli jumboq yo‘lidan naqadar ulug‘vor g‘oyalar topdi, inson qalbini tasvirlashda naqadar yuksakka ko‘tarildi.

Dostoyevskiy avval voqealarni dialoglarga, qahramonlarning ruhiy holatlariga, kichik hodisalarga, detallarga, tasvirlarga, manzaralarga sochib yuboradi – ular avval bizga ayrim holda namoyon bo‘ladi, keyin esa bu voqealar izoh tariqasida umumlashtirilib, baho berilib, sharhlab beriladi. Natijada bizga tarqoq, uzuq-yuluq bo‘lib ko‘ringan voqealar o‘rtasida mustahkam aloqa borligi ayon bo‘ladi. Bu zanjir o‘z-o‘zidan ruhiy kechinmalarning uzviy ravishda bir-biriga bog‘liqligida ko‘rinadi. Mishkinning qaytish kunidan so‘ng o‘n varaqcha umumlashma izoh keladi: bu izohdan biz bu yerda psixologik tahlildan ko‘ra ko‘proq voqealarni bir-biriga bog‘lash uslubini ko‘ramiz, bu yerda voqeaga muallif munosabati birinchi o‘ringa chiqadi. Muallif har bir voqeaga yoki qahramonga xolisona baho, izoh berib bo‘lgach, ikkinchi umumlashmaga o‘tadi («umumlashma» – shartli atama), ya’ni qahramonlarni ruhning, kechinmalarning, psixik

holatlarning xuddi marvaridday tovlanayotgan turli xil nuqtayi nazar, dunyoqarash, o‘lchov, intim tuyg‘ularning quyuq o‘rmoniga qo‘yib yuboradi, shu orqali qahramonlarning ichki dunyosini ocha boradi, kishi botiniy olamining manzaralarini beradi – bu paytda yozuvchi uchun tashqi voqea deyarli ahamiyat kasb etmaydi. Qahramon psixologiyasi, umuman, insonning ma’naviy dunyosini belgilaydigan birdan-bir vosita, garchi mavhum yurish va o‘qish azob bo‘lsa ham, mana shu kechinmalar o‘rmonidir. Bu o‘rmondagina odamlar o‘z soxtaliklarini yig‘ishtirib, haqiqiy turqlarini namoyon etadi. Faqat mana shu hislar, tuyg‘ular, dunyoqarashlar, emotsiyalar, azoblar, musibatlar, quvonchlar, g‘oyalar, takabburlik, yovuzlik, jaholat, baxt va baxtsizlik, ishonch va ishonchsizliklar, muhabbat va nafrat qorishib yotgan ruhiyatning o‘rmonidagina odam o‘zining haqiqiy yuzini namoyon etadi. G. Fridlender aytganidek, «Yurakni alday olmaysan, aql ertami, kechmi o‘zini fosh etib qo‘yadi, lekin yurakni alday olmaysan».[2]

Dostoyevskiy ana shu aldab bo‘lmas inson yuragi haqida va uning tuyg‘ulari haqida yozdi. Chunki bu tuyg‘ular odamning o‘zligini belgilaydi. Odam o‘zini o‘zi aldashi sira ham mumkin emas. Ulug‘ Amerika yozuvchisi Folkner «Men aqlga emas, yurakka ishonaman» deganda odamning aynan ana shu holatini nazarda tutgandi. Tiriklikning quyunday yopirilib keluvchi balo-yu ofatlaridan, azob-uqubatlaridan, tashvish-u nadomatlaridan, xo‘rlik va haqoratlaridan o‘zlarini olib qochib kirgan yagona boshpana ham aslida shu o‘rmon. Aqllilik soxta bo‘lishi mumkin, zo‘raki fikr, zo‘raki donolik bo‘lishi mumkin. Lekin hech qachon zo‘raki tuyg‘u bo‘lmaydi. Tuyg‘u va kechinmalar yurakdan «...bu Xudoning ulug‘ in’omidir»[3] va uning avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan, ajdodlar shukuhi hamda shavqi bilan to‘lgan eng chuqur qatlamidan oqib chiqadi. Shodlik ham, qayg‘u ham, avvalo, ana shu yerda uyg‘onadi. Baxt va baxtsizlik, muhabbat va nafrat, qayg‘u va quvonch, razolat va ezgulik, jaholat va donolik, xo‘rlik va faxr, g‘urur va xushomad, mardlik va xiyonat, yaxshilik va yomonlik timsoli o‘laroq bu tiriklik sahrosida har kim o‘z salohiyatidan kelib chiqib kezadi. Dostoyevskiy asarlarida bu sahro bitmas-tuganmas, cheksiz va zim-ziyo, yilt etgan, zulmat sahroni yoritguvchi nur izlab o‘tgan, bu yo‘lda adashgan, aldangan, xo‘rlangan, o‘ksitilgan, lekin o‘sha nurni – ezgulikka ishonch nurini yo‘qotmagan, shu nur bilan bizning qalbimizni ham yoritgan.

Dostoyevskiy asarlarining qahramonlari yodimiz, shuurimizda bir umr o‘rnashib qoladi, bizning hayot va dunyo haqidagi, inson va ezgulik haqidagi yuzaki qarashlarimizni parchalab tashlaydi, bizni havoyi gumanizm osmonidan zaminga, bizning guvohligimizda ko‘plab ro‘y beradigan adolatsizliklar, tubanliklar bilan birga eng ezgu narsalar ko‘karadigan tuproqqa tushiradi. Pushkin so‘zi bilan aytganda, «Dostoyevskiy qahramonlari biz har kuni ko‘chamizda, shahrimizda ko‘rib yurgan oddiy kishilarga juda o‘xshaydi»[4]. Biroq biz hech qachon bu odamlarning qalbiga quloq solib ko‘rmaganmiz, ularning o‘y-azoblaridan bexabarmiz. Dostoyevskiy esa bu dunyoni o‘zining ulug‘ salohiyati bilan kashf etdi.

So‘z va poeziya bilan qalbni majruh qilish uni tuzatish, uni fikriy majruhlikdan ozod qilish degani. Dostoyevskiyni o‘qigan va uni anglagan odamning mo‘minligi va xudbinligi, rosti va yolg‘oni, toqati va xiyonati majruh bo‘ladimi, qallobligi, havoyi tushunchasi va tor falsafasi majruh bo‘ladimi, bu majruh qalb poeziyani bilmaydigan, poeziyadan biron marta majruh bo‘lmagan, Dostoyevskiy dunyosini his etmagan qalbdan yuz marta sog‘lomroq qalbdir. Bu majruhlik inson logikasini o‘rganishga kirishgan, insonlashgan majruhlikdir. Bu majruhlik insonni sevishga, ardoqlashga, e’zozlashga mubtalo bo‘lishdir. Dostoyevskiy asarlari inson logikasini o‘rgatadi. Inson – bu g‘oya emas, inson – bu hasharot emas, inson fandir, sinoatdir – mo‘jizadir, u qarama-qarshi qutbga ega bo‘lgan mantiqiy fan. «Odam – bu avvalo loyihadir»[1], o‘zining o‘tmishi va kelajagi, buguni chizib qo‘yilgan loyihadir, modeldir, yoxud «inson – bu ozodlikdir».[2] U kuch yoki zug‘um bilan emas, mantiq bilan kashf etiladi.

Dostoyevskiy o‘zida mutlaqo sig‘maydigan va boshqa dunyo deb ta’riflab kelingan (buni Belinskiy ham inkor etmagan) ikkita dunyoni – Gogol va Yevropa psixologik maktabini o‘zida birlashtira oldi.

Tasvirda, ta’rifda, rus kishisiga bo‘lgan munosabatda Gogol yaqqol seziladi, lekin ichki dunyoni aks ettirishda Dostoyevskiy ko‘proq Yevropa ilg‘or yozuvchilarining tajribasiga tayangan. Biz psixologik tasvirda Gofmanni, Balzakni, Gyugoni va boshqalarni ko‘rishimiz mumkinki, bu – Dostoyevskiyning o‘ziga xos novatorlik maktabidir. Dostoyevskiy psixologik tasvirda faqat yozuvchi emas, o‘ziga xos olim hamdir, u rus psixologik poeziya maktabini yaratdi: psixologik tasvir Dostoyevskiy ijodida priyom darajasidan uslub darajasigacha shakllandi, bu uslub ayrim qahramonlar ichki dunyosini ochuvchi (masalan, Gofman asarlaridek) priyom bo‘lib qolmay, balki butun asarni yuzaga keltiruvchi, yozuvchi g‘oyalari va qarashlarini aks ettiruvchi tugallangan yaxlit uslubga aylandi, bu uslubda hatto tabiat tasvirida muallif munosabati ham psixologik tahlil hisobiga qurilishi, garchi o‘sha payti buni ham e’tirof etgisi kelmasa-da, lekin Dostoyevskiyning o‘zi ichki bir sezgi va ishonch bilan e’tirof etgan, shu maktabning birinchi talabasi va yaratuvchisi sifatida so‘nggi damgacha sodiq qolgan, keyinchalik butun dunyoda o‘z atrofiga juda ko‘p shogirdlarni to‘plagan polifonik-psixologik (Baxtinning termini) maktab yaratdi.

Dostoyevskiy novatorligi shundaki, naturalistik maktab bilan psixologik maktab o‘rtasidagi to‘siqni olib tashladi, ularni bir-biriga singdirdi: umuman, chinakam poeziyada bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan oqimning o‘zi bo‘lishi mumkin emas, qarama-qarshilik va farq faqat bizning tasavvurimizdagina bo‘lishi mumkin. Dostoyevskiy poeziyaning eng murakkab yo‘lidan bordi, bu murakkab yo‘l izlanishlardan, yangilanishlardan, hatto ba’zan umidsizlik va tushkunlikdan ham iborat azobli yo‘l edi. Bizningcha, o‘z kuchidan umidsizlanish – bu yangi asarga, yangi ijodiy bosqichga kuch to‘plash deganidir. Ijod jarayoni hamisha ana shu – umid va umidsizlanish bilan o‘sib, yangilanib boraveradi, negaki bu ikki holatda ham odam qalbi g‘alayonga keladi, to‘lqinlanadi, mavjlanadi, hissiyotlar o‘ziga timsol, obraz, badiiy qiyofa izlay boshlaydi: bekorga Dostoyevskiyning asarlari yoniq ehtiros bilan sug‘orilmagan, bu ehtiros ulug‘ qalbning bezovta nafaslaridir, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Dostoyevskiy poeziyada yangi yo‘l, yangi tasviriy kenglik izlar ekan, u hamisha past tabaqa hayotini, qashshoqlar va baxti qarolar hayotini obyekt qilib olardi. Zotan, haqiqiy poeziyani, kuchni yozuvchiga hayotning o‘zigina berishi mumkin. L. Tolstoy ta’biri bilan aytganda, poeziya ham hayot kabi bepoyon va xilma-xildir. Dostoyevskiy fabula, syujet,

tugun va yechim, kompozitsiya, lirik manzaralarning yangi qirralarini, yangi imkoniyatlarini ochdi. U o‘z talanti bilan XIX asrda to‘xtab qolmadi, keyingi asrlar uchun ham ulug‘ darg‘a vazifasini o‘tadi. U «mening asarlarimni yuz yildan so‘ng o‘qishadi» deganda to‘liq haq edi.

Chinakam adabiyot faqat bugun uchun xizmat qilmaydi, u kelajakka va yangi-yangi avlodlarga xizmat qiladi, yangi avlodlar undan o‘zlari uchun yangi ijodiy kuch va ilhom topadilar, bugungi adabiyotning haqiqiyligiga ham kelajakdagi avlodlar baho bera oladi.

Birgina maqolada Dostoyevskiy ijodini to‘la qamrab ololmaymiz yoki uni mutlaqo o‘rganilmagan yo‘ldan analiz qilishimiz ham mumkin emas. Biz ish davomida na Grossman, na Baxtin, na Otto Kaus, na Vyacheslav Ivanov tanlagan yo‘ldan boramiz. Bu hozircha tadqiqotimiz obyektiga kirmaydi. Shuning uchun biz Dostoyevskiydek ulkan tadqiqotchilarning birontasini «mana shu bizga murshid (pir) bo‘la oladi» deb ayta olmaymiz, zotan fikrlarimizni tasdiqlatish uchun ko‘proq M. Baxtinga suyansak ham, bizning oldimizda bu tadqiqotchilarning ilmiy qarorgohiga kirish uchun obyektiv to‘siqlar borki, buni bizning ishimizga o‘xshash bir-ikki ish bilan bartaraf etib bo‘lmaydi.

Bu qanday sabablar yoki to‘siqlar?!

1. Avvalo, Dostoyevskiy bilan Sharq o‘quvchisi boshqa-boshqa madaniyatning va boshqa estetik tarbiyaning odamlari: Yevropada psixologizm va fikr birinchi o‘rinda turadi, yozuvchining butun qobiliyati mana shu psixologizmda ko‘rinadi, bu esa rus va Yevropa tadqiqotchilariga Dostoyevskiyni tushunishni, «hazm qilish»ni osonlashtiradi. Bundan tashqari, Yevropa o‘quvchisi ko‘proq nasriy asarlarga o‘rgangan. Sharq o‘quvchisi esa ko‘proq majozga, so‘zning jozibasiga o‘rgangan, uning o‘ziga xos his etish, o‘qish, anglash, tushunish qobiliyati borki, bu minglab yillar davomida rivojlanib, tarkib topib kelgan. O‘zbek o‘quvchisining Dostoyevskiyni tushunishi og‘ir kechishi tabiiy, xuddi Navoiy va uning falsafasini, so‘z o‘yinini rus o‘quvchisi his etishi og‘ir bo‘lgani kabi. Biroq bu Dostoyevskiyni o‘zbek o‘quvchisi o‘qimasligi kerak degan fikrni keltirib chiqarmaydi, aksincha, Dostoyevskiyni o‘qish uchun o‘quvchida ma’lum bir tayyorgarlik bosqichi bo‘lishi kerak. Buni o‘tish bosqichi – voqeabandlikka o‘rgangan o‘quvchining psixologizm uslubini qabul qilishga o‘tish davri deyish mumkin.

2. Ana shu sabablarga ko‘ra ikkinchi murakkablik ham kelib chiqadi. Grossman, Baxtin, Otto Kaus, Vyacheslav Ivanov, Fridlender va boshqalar Dostoyevskiy haqida o‘nlab tadqiqotlar, maqolalar, portretlar e’lon qilganlar, demakki, Yevropa va umuman rus o‘quvchisi bu katta tadqiqotchilarni qabul qilishga tayyor edilar. Boshqa tomondan, rus o‘quvchisi tushunishi uchun Dostoyevskiyga ruhan yaqin edi (milliy, lisoniy, madaniy, tarixiy), demakki, ular tadqiqotchilarning tadqiqini tushunish darajasida edilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu holda tadqiqotchilarning munozaralari ham Dostoyevskiy ijodi bilan tanish bo‘lganlarga tabiiy va tushunarlidir. Biroq hali Dostoyevskiy haqida bironta tuzukroq maqola e’lon qilinmagan o‘zbek adabiyotshunosligida-chi? O‘quvchida «Telba»ni, «Jinoyat va jazo», «Iblislar»ni tushunish uchun ma’lum tadqiqiy tayyorgarlik bormi? Afsuski, yo‘q. Ustiga-ustak asarni tushunishdagi sharqcha va g‘arbcha xususiyatlarni qo‘shsak, biz nima uchun bu ulkan tadqiqotchilarning bahsiga birdaniga qo‘shila olmasligimiz ravshan bo‘ladi.

3. M. Baxtin, Grossman, Lunacharskiy va boshqalar Dostoyevskiyning adabiyotdagi eng ulkan hissasi uning polifonik roman janrini yaratganidadir deb ko‘rsatishadi. Ular Dostoyevskiy mahoratining boshqa xususiyatlarini ham mana shu polifonik uslub orqali sharhlaydilar. Shunday ekan, polifoniya nima ekanligi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmay turib, bu tadqiqotchilarning talqinlarini ham, Dostoyevskiy asarlarini ham tushunish qiyin. Chunki «polifonik roman» degan terminni tushunish uchun o‘quvchi romanning boshqa turlaridan tortib polifoniyagacha bo‘lgan bosqichlardan oz-moz xabardor bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa, bu terminni va terminga yuklatilgan talqinni tushunmaydi. «Polifoniya» – «Ruscha-o‘zbekcha lug‘at»da «ko‘p ovozlilik» deb o‘girilgan, ammo «ko‘p ovozlilik» deyishning o‘zi kitobxonga hech qanday tasavvur bermaydi. Xo‘sh, polifonik uslub nima?

M.M. Baxtin polifoniyani asardagi turli fikr, kechinma va qarashlarning birdan jaranglashi, asar strukturasidagi ko‘p ovozlilik, ko‘p qatlamlilik deb tushuntiradi. Dostoyevskiy adabiyot sohasida eng ulug‘ novatorlardan biri edi. U badiiy tafakkurning Baxtin shartli ravishda polifonik deb atagan yangi tipini yaratdi. Uning romanlari dunyoni badiiy mushohada etishning yangi modeli edi. «Shu vaqtgacha eshitilmagan va tasvirlanmagan ovoz va ma’naviyatning nihoyatda o‘ziga xosligi, ovozlardagi haqiqiy polifoniya Dostoyevskiy romanlarining asosiy xususiyatlari hisoblanadi».[1] «... Shuning uchun uning ijodi biz Yevropa romanlarida ko‘rib o‘rgangan hech qaysi ramkaga, hech qanday tarixiy-badiiy sxemaga bo‘ysunmaydi...»[2]. Dostoyevskiy asar strukturasida mutlaqo erkin, asar kompozitsiyasi voqealar rivojiga qarab emas, ovozlar rivojiga qarab quriladi. Gogol va Yevropa romanchiligining o‘ziga xos mujassami Baxtin ta’biri bilan aytganda, polifonik maktabni yuzaga keltirdi. Baxtin Dostoyevskiy poetikasini tushunishda ko‘proq o‘zining subyektiv fikrlarini asos qilib oladi: bizningcha ham Dostoyevskiyga har bir tadqiqotchi (shu jumladan, o‘quvchi ham) o‘ziga xos yo‘l bilan yondashishi zarur, birov ko‘rsatgan yo‘ldan borishi har bir tadqiqotchi uchun zo‘raki va sun’iy talqin qilishga olib keladi. Adib asarlariga tanqid bilan yondashib bo‘lmaydi, bunday yondashish ham Dostoyevskiy poetikasini tushunmaslikka olib keladi. Uning asarlari faqat bitta – umumbashariy ideologiyaga, tiriklik va go‘zallik ideologiyasiga xizmat qiladi. Uning poetikasini chuqurroq o‘rganish orqaligina Dostoyevskiyning g‘oyaviy konsepsiyasini aniqlash mumkin. Dostoyevskiyni yo diniy, yo realistik, yo falsafiy, yo uslubiy, yo g‘oyaviy tomondan o‘rganish uning polifonik poetikasini monofonlashtirib qo‘yadi (Baxtin). Bu narsalarni yaxlit, butun holda o‘rganishgina maqsadga muvofiqdir – polifonik romanning mohiyati ham ana shu yerda.

Dostoyevskiy qahramonlarining dunyosi o‘zi yashagan davr insonlarining ma’naviy dunyosi, ma’naviy dramasi, ma’naviy ko‘zgusidir. Lekin qahramonlar shu kechinmalari, orzulari, armonlari, umidlari va fojiasi bilan bizga yaqindirlar. Dostoyevskiy qahramonlarining har biri bizning vujudimizda yashaydi, fojia shundaki, o‘z vujudimizda shunday ayanchli, shunday mudhish hamda barcha yaramasliklari bilan birga go‘zal dunyo borligini benazir so‘z ustasi bizga ko‘rsatib berdi: biz o‘z tuyg‘ularimizni, o‘z og‘riqlarimizni kam tahlil qilamiz, bizning fojiaimiz shunda. Dostoyevskiy qahramonlari biz

bilan birga nafas olib, bir vujudda yashayveradi. Faqat ularni ko‘rish uchun bizga Dostoyevskiyning ko‘zi kerak.

Dostoyevskiy og‘riqlarni va ayanchli xususiyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatgani yo‘q, aksincha, haqiqiyroq, chuqurroq ko‘rsatdi, bu og‘riqlarni inson yuragini to‘sib yotgan qora va jimjimali, yolg‘onchi pardalar ichidan tortib yuzaga chiqardi, uni soxta, yasama, dabdabali, aldoqchi, puch, balandparvoz xitoblar-u ro‘yalardan tozaladi, uni yolg‘on, omonat mafkuradan forig‘lantirdi – inson yuragi va qismati asli qanday bo‘lsa, ya’ni la’natga yo‘liqib jannatdan quvilgan odam asli qanday bo‘lsa, shunday razolat botqog‘iga botgan holatida tasvirladi. Yozuvchi o‘zi e’tirof etganidek, «Odam ichidagi odamni to‘la haqqoniylik bilan» tasvirladi [3].

«Odam ichidagi odam» – bu insonning ichki qiyofasidir. Yozuvchi asarlari hayot va hayotning uyg‘unlashgan go‘zal namunasidir. Dostoyevskiy hayotni fotokopiya qilib olmaydi, uning asarlaridagi hayot badiiy mushohadaning, badiiy fantaziyaning, badiiy xayolotning yuksak ko‘rinishidir. Dostoyevskiy asarlaridagi hayot poetik timsollar, majozlar, obrazlar modellaridir. Xayolot kuchi bilan hayotiy haqiqatlar qo‘shilib, go‘zallik va xunuklikning, yovuzlik va ezgulikning badiiy modellari yaratilgan. Hayot shunisi bilan ayanchliki, unda yovuzlik hamisha hukmron bo‘ladi, hayot shunisi bilan go‘zalki, unda avlodlar, g‘oyalar, qarashlar hamda ezgulik hamisha navqironlashib, yasharib boradi. Hayotning tuban tomonlari bilan go‘zal tomonlari tiriklikda hamma narsa nisbiy ekanligini isbotlab turadi. Navqironlik kishiga hamisha zavq bag‘ishlaydi, keksalik odamni sermusibat qilib qo‘yadi. Biroq ikki holatda ham insonning fantaziyasi va xayoli go‘zaldir. Badiiy mushohada hayotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash emas, timsoliy, majoziy go‘zallikka aylantira olishda ko‘rinadi. Dostoyevskiyning ulug‘ligini ham biz mana shu yerda his etib turamiz.

Aytish kerakki, Dostoyevskiy asarlarining tadqiqotchilari bu ulug‘ yozuvchini yetarli darajada o‘rganganlar. M. Baxtin «Dostoyevskiy poetikasi muammolari», «Dostoyevskiy uslubi haqida», Pereverzev «Dostoyevskiy ijodi», M. Gus «Dostoyevskiy g‘oyalari va obrazlari», R.I. Zaslavskiy «F.M. Dostoyevskiy», V.Ya. Kirpotin «Dostoyevskiy san’atkor», A.S. Losinin «Dostoyevskiyning so‘nggi romanlari», G. Motileva «Dostoyevskiy va XX asr chet el yozuvchilari», I. Lopshin «Dostoyevskiy estetikasi», L. Grossman «Dostoyevskiy», B. Engelgard «Dostoyevskiyning ideologik romanlari», A. Kashino «F.M. Dostoyevskiy estetikasi» va boshqalar.

Makon birligiga ko‘ra, Gogolning «Peterburg povestlari» qahramonlari aksariyat past tabaqa kishilari, xuddi mana shu povestlar Dostoyevskiyga chuqur ta’sir qilgan («Biz «Shinel»dan o‘sib chiqqanmiz»). Kitobxonda Dostoyevskiy qahramonlari ham mana shu asarlardan o‘sib chiqqan degan xulosa uyg‘otadi, chunki ularning aksariyati peterburgliklardir.

Qahramonlar psixologiyasiga ko‘ra, «Gogolning Peterburg qahramonlarining barchasi «xayolparastlar» ekanligini anglash qiyin emas. Bu gap faqat Piskaryovga yoki Chartkovgagina tegishli emas, balki yuqori tabaqaning dabdabali hayotiga erishish yo‘lida o‘ziga xos xomxayollarning quli bo‘lgan Poprishinga, Akakiy Akakiyevichga, hatto mayor Kovalyov hamda Xlestakovga ham tegishlidir».[4]Hayot kabi adabiyotning qamrov kengligi ham cheksizdir. Dostoyevskiy uslubidagi, asarlaridagi nurli, farahli jihat ham mana shu ko‘p qirralilik, ko‘p qatlamlilik, ko‘p timsollilik, ko‘p tomonlamalilik ichida yotgan insonparvarlik g‘oyasi yoki inson muammosidir. Mana shu jihatni tushungan o‘quvchi asarlaridagi har bir satrda, qatorda, jumlada, so‘zda insonga yuksak muhabbatni sezib turadi. Ayni paytda shuni ham aytib o‘tish kerakki, qahramonlardagi xayolparastlik – g‘alayonning ojiz ko‘rinishidir. Bu g‘alayon “Jinoyat va jazo”, «Aka-uka Karamazovlar» kabi asarlarda isyon darajasiga ko‘tariladi. Raskolnikov va Dmitriyning isyoni endi yozuvchining falsafiy isyoni emas, balki amaliy isyonidir. «Dostoyevskiy qahramonlarining isyoni hamisha «ikki tomonlama»dir. Bu isyon bir tomondan nazariy, g‘oyaviy, ma’naviy, ya’ni qahramon yoki qahramonlar ongida – ichki «syujetda» sodir bo‘lgan isyon. Ikkinchi tomondan – amaliy harakatdagi isyondir.[1] «Ichki» va «tashqi» syujetning o‘zaro mutanosibligi, zaruriyatliligi – yozuvchi asarlarining muhim qarashlaridan biridir.

Biz Dostoyevskiy asarlarining barchasida Shekspir ruhining ulug‘vor qudratini sezib turamiz. Gorkiy bekorga Dostoyevskiy iste’dodini Shekspir iste’dodi bilan tenglashtirmagan edi.[2] Dostoyevskiy asarlarida Shekspirga xos chuqur dramatizmdan tashqari, kompozitsiya, tugun, fabula chiziqlarida ham sahna asarining unsurlarini ko‘rib turamiz. «... drama – bu kurash, evolyutsiya, umuman, harakat, taraqqiyot degani...».[3] «Telba» romanida esa bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarlarda avvalo xuddi sahna asaridagidek:

a) xarakterlar va voqealar qahramonlar nutqi orqali ochiladi;
b) butun dramatizm ana shu nutqlarda (ovozlarda) namoyon bo‘ladi;
v) ichki psixologiya ham nutqlar orqali ochiladi;
g) biz asarda muallif nutqiga faqat izoh tariqasidagina duch kelamiz;
d) fojia umuminsoniy fojia darajasiga ko‘tariladi.

Umuman, insonni badiiy mushohada etish, insonni tasvir obyekti qilib olish, ehtiros va hayajon, qahramonlarning gapirish usullariga ko‘ra Dostoyevskiy Shekspir bilan bir safda turadi. Biroq Dostoyevskiyda qahramonning botiniy dunyosi chuqurlashadi, endi faqat nutqlar emas, harakat, tashqi tasvir, qahramonning o‘z xulqi bilan olishuvi ham voqea va qahramon dramatizmini chuqurlashtiradi. Dostoyevskiy dramatizmda Shekspirni pir deb bilsa, tasvir va rus tili qudratini, badiiy qahramonini namoyon qilishda Gogolni ustoz deb biladi. Dostoyevskiy va Gogol mavzusi rus adabiyotshunosligida yetarli darajada ishlangan. Bu o‘rinda G.M. Fridlenderning «Dostoyevskiy va Gogol», V.Ya. Kirpotinning «F.M. Dostoyevskiy», Yu. Tinyanovning «Dostoyevskiy va Gogol», N. Chirkovning «Dostoyevskiy uslubi haqida» va boshqalarning asarlarini misol keltirib o‘tish mumkin.

Ma’lumki, gumanizm Dostoyevskiyni chet el adabiyoti bilan chambarchas bog‘ladi, biroq badiiy asar uchun faqat gumanist bo‘lishgina yetarli emas, badiiy asar so‘z san’ati, ona tilining jozibasi hamdir. Dostoyevskiy bilan Gogolni rus qalbi birlashtirdi, negaki, hali rus adabiyotida hech kim rus qalbini Gogolchalik ochmagan edi. Insonga muhabbat Dostoyevskiyni xalqning past tabaqasiga yetaklab keldi – bu tabaqa hayotini birinchi marta Gogol yoritishga uringan va adabiyotda «Kichik odam» tipini yaratgan edi. Gogol, deb yozadi Chernishevskiy, rus adabiyotiga mazmun berdi. O‘zini

anglash tuyg‘usini paydo qildi, rus ma’naviyatining qudratini va o‘ziga xosligini namoyish qildi.[4] Rus adabiyoti Gogol tufayli haqiqiy xalqona adabiyotga aylandi. Dostoyevskiyni Gogol bilan bog‘laydigan birinchi rishta ham ana shu insonga munosabatda ko‘rinadi.

1. Qahramonlarning jamiyatda tutgan o‘rinlariga ko‘ra (mayda kishilar, chinovniklar, meshchanlar va hokazolar). Gogol mayda tabaqalar hayotini adabiyotga olib kirishni boshlab berdi, Dostoyevskiy eng yuksak cho‘qqiga ko‘tardi, jamiyat xo‘rlagan odamlar galereyasini paydo qildi. Gogol Boshmachkin obrazi orqali jamiyatning qashshoq va xo‘rlangan qatlamini ko‘rsatdi. Dostoyevskiy bu qatlamning ma’naviyatini chizib berdi.

2. Til poetikasi, rus kontekstual nutqiga ko‘ra. Gogol rus adabiy tilini xalq so‘zlashuv tili bilan yaqinlashtirdi. Gogol davriga kelib rus adabiy tili har xil sun’iy qorishmalardan, chet tili ekvivalentlaridan, zo‘raki va sun’iy iboralardan tozardi, chinakam xalqchil tus oldi. Rus so‘zi Dostoyevskiy ijodiga kelib qudratli qiyofaga kirdi. Gogolning kinoyaga boy jonli tili Dostoyevskiy asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Agar bu jonli til bo‘lmaganda edi, Dostoyevskiy ham bu qadar qudratli bo‘lolmasdi. So‘zni his etish va anglashda ham Gogol ta’siri juda katta.[5]

3. Tasvir uslubiga ko‘ra (Dostoyevskiyda ham Gogolga xos voqelikni kinoya, istehzo bilan tasvirlash san’ati yaqqol seziladi. Biz bunga to‘xtalamiz).

4. Tip va xarakterlar yaratishga ko‘ra. Gogolcha tip yaratish san’ati Dostoyevskiyda yangi pog‘onaga ko‘tarildi, u ma’lum guruhlarning tilini emas, butun boshli ijtimoiy tiplarni yaratdi. Xayolparast, kulgili odam, Lebedev, Lutin, Raskolnikov, Stavrogin, Ivan Karamazov va hokazo. Biz Boshmachkin bilan Lebedevni solishtirib ko‘rsak, tip yaratishdagi Dostoyevskiyning novatorligini yaqqol his etamiz. Boshmachkin qurbon bo‘layotgan, qurbon qilinayotgan odam. «Boshmachkinning ma’naviy qashshoqligi uchun Boshmachkin yoki odamning tug‘ma tabiati aybdor emas, aksincha, sharoit, muhit, odamni Boshmachkinga aylantirgan tuzum aybdor».[6] «Zo‘ravonlik hisobiga qurilgan adolatsiz tuzum uni Boshmachkinga aylantirgan. Gogol bu past tabaqaning ham odam ekanligini, uning ham baxtli va saodatli bo‘lishiga haqqi bor ekanligini ko‘rsatdi. Odatda tadqiqotchilar Boshmachkinga Levushkinni solishtirishadi.

Makar Levushkin – Dostoyevskiyning jamiyatga qo‘ygan birinchi diagnozi. Bu qahramon ko‘plarga, jumladan, Belinskiyga ham juda yoqdi. Biroq Dostoyevskiy bu qo‘yilgan birinchi diagnozda to‘xtab qololmasdi. U insonning Levushkinga aylanish jarayonini va bu jarayonning odamning ichki dunyosiga ta’sirini tekshirmoqqa kirishdi. Odam qul bo‘lishi mumkin, uning qo‘l-oyog‘i zanjirlangan bo‘lishi, u barcha narsada xo‘jayinga qaram bo‘lishi mumkin. Lekin bu rasmiy qulning ichki dunyosi xo‘jayinga qaram bo‘lmaydi, ya’ni odam ma’nan qul bo‘lishi sira ham mumkin emas. Levushkinning va Levushkinlarning fojiasi shundaki, ular ma’naviy qul bo‘lib qolgan. Bu qullik odam tabiatida bormi? Yoki odamlar qul va xo‘jayin bo‘lib tug‘iladilarmi? Jamiyatda qullikka va xo‘jayinlikka ehtiyoj bor ekan, jamiyat adolatsiz ekan, odamlar noteng yashashga mahkum ekan, birovlar to‘q, birovlar och ekan, birovlar aysh-ishratda, boshqalar hatto oddiy insoniy huquqlardan mahrum ekan, odamlar tabaqalarga bo‘linar ekan, bu yerda qullik bo‘lishi, odam ma’naviy qul bo‘lib yashashi tabiiydir.

Yuqorida sanalganlar odamning ma’naviy qashshoq bo‘lib qolishiga imkon, ehtiyoj yaratadi. Bu qullik anglangan qullik va anglanmagan qullik bo‘lishi mumkin. Levushkin, Rostanav, Gorshkov, Golyadkin, Ivan Petrovich, Yefimov – bular o‘z qulliklarini anglamagan qullardir. Ular bu qullikka ko‘nikib qolganlar, qullik psixologiyasi ularning tabiatiga o‘rnashib qolgan, ular xo‘jayinlar bilan ko‘rishishni faxr deb biladilar, agar yuz so‘m bersalar, bir umr baxtiyor bo‘lib o‘tadilar, ertadan kechgacha qodir emaslar. Bu savolni berish isyonning boshlanishidir, ularning hammasi bu savoldan narigi tomonda yashayotgan rasman ozod, lekin yuragida qullikning haykali turgan qullardir, ular o‘zlari och qolishi, xo‘rlanishi, toptalishi, xaroba kiyim kiyib o‘tishi mumkin, «xo‘jayin menga qo‘l uzatdi», deb faxrlanib yuradilar, bu odamlar qullik psixologiyasiga g‘arq qilingan, cho‘ktirib yuborilgan odamlardir.

Dostoyevskiy asarlari odam tabiatidagi mana shu psixologiyani butun mudhishligi bilan ochib bera oldi. Odam qul bo‘lib tug‘ilmaydi, uni qul qilib tarbiyalashadi. Mana shu odamni qul qilib tarbiyalovchi axloq kimga xizmat qiladi va uni kim yaratgan? Har bir odamning ichki dunyosi – jamiyat qiyofasining bir qismidir. Bu xil odamlar zamona qahramonlari kabi tipik qahramonlardir. Dostoyevskiy odamning ma’nan qul bo‘lishi jarayonini o‘z asarlarida tekshirdi va ochib berdi. Bu obraz faqat tipiklik jihatidan emas, balki fojianing ichki olamdan tasvirlanishi, qahramonning o‘zini o‘zi fosh qilishi jihatidan ham yangi obrazdir.

Dostoyevskiy umrining oxirigacha qahramonlarning o‘zini o‘zi fosh etish uslubiga sodiq qoldi. Biz buni xayolparastda ham, Ivan Petrovichda ham, «Qimorboz»da ham, «Ma’suma»da ham, «Kulgili odamning tushi»da ham ko‘ramiz. O‘zini o‘zi fosh etish uslubi odamning o‘z tuyg‘ularini anglay olish zaruratini keltirib chiqaradi. Anglanmagan tuyg‘u fosh etilmaydi. Qahramon qanchalik o‘z tuyg‘ularini, o‘zini fosh etsa, atrofidagi muhitni ham, o‘zi yashayotgan tuzumni ham fosh eta boradi. Zero, u o‘zi yashayotgan jamiyatning bir qismidir. Nomukammal jamiyat odamni xayolparast qilib qo‘yadi. Qayerda puch va xomxayol ko‘p bo‘lsa, bilingki, u yerda hayot ham yaxshi emas. Dostoyevskiy asarlaridagi qahramonlarning ko‘pchiligi o‘zi istagandek yashashni orzu qilgan, lekin bunga erisholmagan, erisholmaslik tuyg‘usi ularni yanada xomxayolga mukkasidan ketkazgan, xayolparastlik, xilvatga kirib olib, o‘z hayoti haqida shirin xayollarga tolish qahramon umrining mazmuniga aylangan.

Dostoyevskiy asarlarining qahramonlari yodimiz, shuurimizda bir umr o‘rnashib qoladi, bizning hayot va dunyo haqidagi, inson va ezgulik haqidagi yuzaki qarashlarimizni parchalab tashlaydi, bizni havoyi gumanizm osmonidan yerga, zaminga, aslida eng ezgu narsalar ko‘karadigan tuproqqa tushiradi. Xulosa qilib aytganda, Dostoyevskiy barcha rus klassik adabiyotidagi hamda G‘arb adabiyotidagi barcha tendensiyalarni o‘z ijodida mujassam eta oladi.[1] Uning ijodiy yo‘li, asarlari qanchalik murakkab bo‘lsa, tadqiq etish jarayoni ham shunchalik murakkabdir. Dostoyevskiy adabiy dunyosini tahlil etuvchi odam mana shu adabiyotlar bilan yetarli darajada tanish bo‘lishi kerak. Ana shunda bu ulug‘vor ovozning o‘ziga xos, teran va ko‘rkam ekanligini his etish mumkin.

Hayot kabi adabiyotning qamrov kengligi ham cheksizdir. Dostoyevskiy uslubidagi, asarlaridagi nurli, farahli jihat

ham mana shu ko‘p qirralilik, ko‘p qatlamlilik, ko‘p timsollilik, ko‘p tomonlamalilik ichida yotgan insonparvarlik g‘oyasi yoki inson muammosidir. Mana shu jihatni tushungan o‘quvchi adib asarlaridagi har bir satrda, qatorda, jumlada, so‘zda insonga yuksak muhabbatni sezib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Белинский В. Г. Собрание сочинений: в 3 т. – Москва: Гослитиздат, 1948. – Т. 3. – 928 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005615906/.
   Иезуитов А. Н. Проблема психологизма в эстетике и литературе // Проблемы психологизма в советской литературе. – Ленинград: Наука, 1970. – С. 39–57. – URL (to‘plam): https://books.google.com/books?id=byZBAQAAIAAJ.
   Ал-Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере: избранные главы / пер. с араб., исслед. и коммент. В. В. Наумкина. – Москва: Наука, 1980. – С. 220. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001024434/. НЭБ [000199_000009_001024434]
2. Гроссман Л. П. Достоевский. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Молодая гвардия, 1965. – С. 314. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01006097497. Search RSL
3. Фридлендер Г. М. Достоевский и мировая литература. – Москва: Художественная литература, 1979. – С. 108. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01007667161. Search RSL
4. Фридлендер Г. М. Реализм Достоевского. – Москва; Ленинград: Наука, 1964. – С. 250. – URL: https://djvu.online/file/ykwnf0euKszCD. 1964
5. Фуэнтес К. Избранное / пер. с исп.; сост. и предисл. В. Н. Кутейщиковой. – Москва: Радуга, 1983. – 400 с. – URL (nashr tavsifi): https://fantlab.ru/edition78236.
   Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода: лингвистические проблемы. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Высшая школа, 1983. – С. 16. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001150074. Search RSL
6. Достоевская А. Г. Воспоминания / вступ. ст., подгот. текста и примеч. С. В. Белова, В. А. Туниманова. – Москва: Художественная литература, 1971. – С. 410. – URL: Воспоминания — elektron matn. Викитека
7. Достоевский Ф. М. Жиноят ва жазо: роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 205. – URL (PDF): https://fledu.uz/wp-content/uploads/2023/01/jinoyat-va-jazo.pdf. fledu.uz
8. Еремина Л. И. О языке художественной прозы Н. В. Гоголя: искусство повествования. – Москва: Наука, 1987. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA03931322.
   Чуковский К. И. Высокое искусство. –Москва: Гослитиздат, 1941. – 259 с. – URL: https://repo.nspu.ru/handle/nspu/4940.
9. Кудрявцев Ю. Г. Бунт или религия: о мировоззрении Ф. М. Достоевского. – Москва: Издательство Московского университета, 1969. – С. 109. – URL (katalog): Kutubxona yozuvi.